| XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....                                   | 1005 |
| Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich                                                                                         |      |
| YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....                                                          | 1010 |
| Alisher Kurambayev                                                                                                                                 |      |
| SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....                                                       | 1014 |
| Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li                                                                                    |      |
| O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....                                                                | 1020 |
| Valikulov Sherzod Zaynitdinovich                                                                                                                   |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSİYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....                                                   | 1029 |
| Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi                                                                                                                    |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....                         | 1033 |
| Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi                                                                                    |      |
| OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....                                                                                         | 1039 |
| Xaydarova Sayyora                                                                                                                                  |      |
| ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....                                | 1043 |
| Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna                                                                                    |      |
| MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA) ..... | 1050 |
| Usmanova Gulida Valiyevna                                                                                                                          |      |
| ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....                                                     | 1055 |
| Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova                                                                                                                |      |
| RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....                                                                  | 1062 |
| Sobirov Abdurasul Abdugafarovich                                                                                                                   |      |



|                                                                                                                                                                    |      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....                                                                                                                 | 1068 |
| Urazov Sadulla Shodiyevich                                                                                                                                         |      |
| TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....                                                                         | 1074 |
| Zokirov Ismoiljon Ibroximovich                                                                                                                                     |      |
| AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI .....                                                                               | 1078 |
| Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov                                                                                                    |      |
| KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ..... | 1083 |
| Muradov Botir Xayat                                                                                                                                                |      |
| КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                    | 1091 |
| Рахимова Манзура Хамид кизи                                                                                                                                        |      |
| DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....                                                                          | 1098 |
| Sidikov Dilmurod                                                                                                                                                   |      |
| MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                   | 1102 |
| Ergasheva Vasila Abdumajitovna                                                                                                                                     |      |
| ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                                          | 1106 |
| Рахимова Тамила Баходур кизи                                                                                                                                       |      |
| O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....                                                                      | 1113 |
| Abdusattarova Dildora Bohodirovna                                                                                                                                  |      |
| O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI .....  | 1120 |
| Djurayeva Lola Abdugabbarovna                                                                                                                                      |      |
| HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                                                             | 1125 |
| Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi                                                                                                                                 |      |
| O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH .....                                               | 1129 |
| Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi                                                                                              |      |
| O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR .....                                                                       | 1135 |
| Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich                                                                                                                                     |      |





# O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR



**Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti  
Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasini mudiri

e-mail: [esboevsardor633@gmail.com](mailto:esboevsardor633@gmail.com)

Orcid:0009 0000 2302 6201

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston moliya va kredit tizimining tuzilishi, funksiyalari va iqtisodiyotdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot kredit bozorining rivojlanishi, bank operatsiyalari va moliyaviy vositachilarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, kapital taqsimoti, risklarni boshqarish va pul-kredit siyosatini amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda likvidlikni ta'minlash, raqobatbardoshlik va investorlarga jozibadorlikni oshirish muammolari ko'rsatilib, xalqaro tendensiyalar asosida tizimni takomillashtirish mexanizmlari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** moliya tizimi, kredit bozori, bank operatsiyalari, investitsiya, risklarni boshqarish, pul-kredit siyosati.

**Abstract.** This article analyzes the structure, functions, and role of Uzbekistan's financial and credit system in the economy. The study focuses on the development of the credit market, banking operations, and the efficiency of financial intermediaries. Issues related to capital allocation, risk management, and the implementation of monetary policy are also examined. The research identifies problems in ensuring liquidity, competitiveness, and investor attractiveness, and proposes mechanisms for system improvement based on international trends.

**Key words:** financial system, credit market, banking operations, investment, risk management, monetary policy.

**Аннотация.** В данной статье анализируется структура, функции и роль финансово-кредитной системы Узбекистана в экономике. Исследование направлено на изучение развития кредитного рынка, банковских операций и эффективности финансовых посредников. Также рассматриваются вопросы распределения капитала, управления рисками и реализации денежно-кредитной политики. В работе выявлены проблемы обеспечения ликвидности, конкурентоспособности и привлекательности для инвесторов, а также предложены механизмы совершенствования системы на основе международных тенденций.

**Ключевые слова:** финансовая система, кредитный рынок, банковские операции, инвестиции, управление рисками, денежно-кредитная политика.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda ochiq bozor tamoyillarini chuqurlashtirish jarayonida kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiyalash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiya faolligini oshirish, real sektorni uzoq muddatli va arzon moliyaviy resurslar bilan ta'minlash samarali kredit-moliya mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, milliy kredit va moliyaviy tizimni zamonaviy talablarga mos ravishda transformatsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.



So'nggi yillarda yurtimizda pul-kredit siyosatini liberallashtirish, bank sektorini transformatsiya qilish, davlat ulushini qisqartirish hamda moliya bozorlarini chuqurlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq bank aktivlarining yuqori darajada davlat sektoriga to'g'ri kelishi, kredit portfellarida konsentratsiya xavfining mavjudligi, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda kapital bozorining sust rivojlanishi kredit va moliyaviy tizimni yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti – O'zbekiston Respublikasining kredit va moliyaviy tizimi faoliyati hamda uning tarkibiy elementlari (bank sektori, moliya bozorlari va moliyaviy institutlar) hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – kreditlash mexanizmlari, moliyaviy vositachilik jarayonlari, bank operatsiyalarining samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga doir iqtisodiy munosabatlar majmuasidir.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiyalashning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish hamda mavjud muammolarni aniqlagan holda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- kredit va moliyaviy tizimning nazariy asoslari hamda iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish;
- O'zbekiston kredit va moliyaviy tizimining amaldagi holatini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- bank sektorida risklar, likvidlik va kapital yetariligi bilan bog'liq muammolarni baholash;
- kredit resurslarini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash samaradorligini o'rganish;
- moliya bozorlarini chuqurlashtirish va moliyaviy instrumentlar xilma-xilligini oshirish yo'llarini asoslash;
- kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston kredit va moliyaviy tizimini barqaror rivojlantirish, bank operatsiyalarining samaradorligini oshirish hamda milliy moliya tizimining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit va moliyaviy tizimni rivojlantirish masalalari iqtisodiy fanlarda keng yoritilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar moliya vositachilari, bank sektori va kapital bozorlarining iqtisodiy o'sishdagi rolini asoslab beradi. Ilk nazariy yondashuvlar moliya tizimining iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini tushuntirishga qaratilgan bo'lib, R. Goldsmith moliya tizimi chuqurligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, rivojlangan moliyaviy infratuzilma kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi va investitsion faollikni rag'batlantiradi.

Keyingi tadqiqotlarda bank sektorining moliyaviy vositachi sifatidagi roli yanada kengroq tahlil qilinadi. McKinnon va Shaw tomonidan ilgari surilgan moliyaviy liberalizatsiya nazariyasi kredit bozorlarida raqobatni kuchaytirish, foiz stavkalarini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida kredit tizimini modernizatsiya qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda moliya tizimining barqarorligi va risklarni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moliya bozorlarida Moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlash siyosatini joriy etish, bank kapitalining yetariligi ta'minlash va kredit portfellarini diversifikatsiya qilish moliyaviy inqirozlar xavfini kamaytirishning muhim omillari sifatida ko'riladi. Bu boradagi tadqiqotlar moliya tizimida likvidlik va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi.

Milliy iqtisodiyotlar misolida olib borilgan tadqiqotlarda davlat banklarining yuqori ulushi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini cheklashi mumkinligi qayd etiladi. Shu bilan birga, xususiy banklar va nodavlat moliya institutlari ishtirokini kengaytirish moliya bozorlarida raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida ham bank sektorini transformatsiya qilish, kreditlash tizimini isloh etish va kapital bozorini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kredit va moliyaviy tizimning barqaror rivojlanishi institutsional muhit, huquqiy bazaning mustahkamligi va moliyaviy nazorat tizimining samaradorligiga bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston kredit va moliyaviy tizimini modernizatsiya qilishda ilg'or xalqaro amaliyotlarni moslashtirish va milliy xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Ushbu ishlar asosan bank sektorini transformatsiya qilish, pul-kredit siyosatini takomillashtirish hamda moliya bozorlarini rivojlantirish masalalarini qamrab oladi.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chop etilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlarda bank tizimi barqarorligini ta'minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va makroprudensial siyosat instrumentlarini joriy etish masalalari asoslab berilgan. Ushbu manbalarda moliya bozorlarining chuqurlashuvi iqtisodiy o'sishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat banklari ustunligi sharoitida kredit resurslarining samaradorligi, foiz stavkalari shakllanishi va real sektorni moliyalashtirish muammolari yoritilgan. Ayrim ishlarida banklarning institutsional transformatsiyasi va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali moliya tizimida raqobat muhitini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston moliya bozorini rivojlantirish agentligi va Iqtisodiy tadqiqotlar markazi tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda kapital bozorini rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va investorlar himoyasini kuchaytirish masalalari keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy instrumentlar diversifikatsiyasi va moliya vositachilarining faolligi milliy moliya tizimi barqarorligining muhim omili sifatida ko'rsatiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiyalash jarayonlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni tizimli o'rganish, bank va moliya bozorlaridagi o'zgarishlarni baholash hamda mavjud muammolar va istiqbollarni aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotda qiyosiy taqqoslash usuli asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu usul orqali O'zbekiston kredit va moliyaviy tizimining hozirgi holati rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlar moliya tizimlari bilan solishtirildi. Xususan, bank sektorining tuzilishi, davlat banklari ulushi, kredit portfeli tarkibi va moliyaviy vositachilarning faolligi bo'yicha taqqoslashlar amalga oshirildi. Natijada, O'zbekistonda kredit resurslarining banklar orqali yuqori darajada markazlashgani va kapital bozorlarining nisbatan sust rivojlanganligi aniqlanib, tizimni diversifikatsiya qilish zarurligi aniqlandi.

Shuningdek, tahlil va sintez usullari qo'llanildi. Tahlil usuli orqali kredit bozori, bank operatsiyalari va moliyaviy instrumentlar alohida elementlar sifatida o'rganildi, sintez usuli yordamida esa ushbu elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik umumlashtirildi. Mazkur yondashuv kreditlash, moliyalashtirish va risklarni boshqarish mexanizmlarining yagona moliyaviy tizim doirasida faoliyat yuritishini asoslab berdi.

Tadqiqot jarayonida statistik va dinamik tahlil usulidan foydalanildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kredit hajmlarining o'sish tendensiyalari, bank aktivlari tarkibi va moliya bozorlarining rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Ushbu usul kredit va moliyaviy tizimda olib borilayotgan islohotlarning ijobiy va cheklovchi jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, institutsional tahlil usuli yordamida moliya bozorlarining huquqiy-me'yoriy bazasi, bank faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlar va davlat siyosatining roli baholandi. Natijada, moliya tizimini modernizatsiya qilish jarayonida institutsional muhitni takomillashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Yuqorida qo'llanilgan metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchligini ta'minlab, O'zbekistonda kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda O'zbekistonda kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiyalash jarayonlari statistik va tahliliy ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida bank sektori rivoji, kredit bozorining tarkibiy o'zgarishlari va moliyaviy vositachilar faoliyati baholandi hamda mavjud muammolar aniqlab berildi.

### 1. Bank sektori va kreditlash hajmlarining tahlili

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank sektorining aktivlari va kredit portfeli hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Biroq mazkur o'sish asosan bank kreditlari hisobiga shakllanib, kapital bozorlarining ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda (1-jadval).

Jadval 1. O'zbekistonda bank kreditlari hajmi va o'sish dinamikasi

| Ko'rsatkichlar              | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|-----------------------------|------|------|------|------|------|
| Kreditlar hajmi (trln so'm) | 230  | 280  | 340  | 410  | 480  |
| O'sish sur'ati (%)          | –    | 21.7 | 21.4 | 20.6 | 17.1 |

Tahlil: Jadvaldan ko'rinadiki, kreditlash hajmi yildan-yilga oshib borgan, biroq o'sish sur'atlarining sekinlashuvi kredit bozorida sifat va risk omillarining kuchayib borayotganini ko'rsatadi.



## 2. Kredit portfeli tarkibi va konsentratsiya muammosi

Kredit portfeli tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, kreditlarning asosiy qismi yirik korxonalar va davlat ishtirokidagi subyektlarga yo'naltirilgan (2-jadval).

Jadval 2. Kredit portfeli tarkibi (foizda)

| Kredit yo'nalishi                     | Ulushi (%) |
|---------------------------------------|------------|
| Yirik korxonalar                      | 55         |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | 28         |
| Iste'mol kreditlari                   | 12         |
| Ipoteka kreditlari                    | 5          |

Tahlil: Kredit resurslarining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi bank tizimida risklarni oshiradi va real sektorning kichik biznes segmentida moliyaviy cheklovlarni yuzaga keltiradi.

## 3. Davlat va xususiy banklar ulushining tahlili

Moliyaviy tizimda davlat banklarining ustunligi saqlanib qolmoqda, 6y esa raqobat muhitining yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Bank aktivlarida davlat va xususiy banklar ulushi

| Bank turi       | Ulushi (%) |
|-----------------|------------|
| Davlat banklari | 68 %       |
| Xususiy banklar | 32 %       |
| Jami            | 100 %      |

Tahlil: Davlat banklarining yuqori ulushi kredit resurslarining bozor mexanizmlariga to'liq asoslanmasdan taqsimlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

## 4. Kapital bozori va moliyaviy vositachilar faolligi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliya tizimida bank sektorining ustunligi kapital bozorlarining rivojlanish sur'atlarini cheklab kelmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilinayotgan mablag'lar umumiy moliyalashtirish hajmida kichik ulushni tashkil etadi (3-jadval).

Jadval 3. Moliyalashtirish manbalari tarkibi

| Moliyalashtirish manbai | Ulushi (%) |
|-------------------------|------------|
| Bank kreditlari         | 82         |
| Kapital bozori          | 12         |
| Boshqa manbalar         | 6          |

Tahlil: Kapital bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish jarayonini sekinlashtirmoqda.

## 5. Tahlil natijasida aniqlangan asosiy muammolar

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi muammolar aniqlab berildi:

- kreditlashda bank sektoriga haddan tashqari tayanish;
- kredit portfellarida yuqori konsentratsiya va risklar;
- kapital bozorlarining sust rivojlanganligi;
- davlat banklarining ustun mavqei;
- moliyaviy vositachilar va instrumentlar xilma-xilligining yetishmasligi.

Umumiy natija: Kredit va moliyaviy tizim miqdor jihatdan rivojlanayotgan bo'lsa-da, sifat va institutsional samaradorlik nuqtayi nazaridan chuqur modernizatsiyani talab etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda kredit va moliyaviy tizim miqdor jihatdan kengayib borayotganini, biroq uning sifat, diversifikatsiya va institutsional samaradorlik nuqtayi nazaridan modernizatsiyaga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. Bank sektorining moliya tizimidagi ustun mavqei saqlanib qolayotgani, kredit resurslarining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi hamda kapital bozorlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini cheklamoqda.





Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kreditlash hajmlarining o'sishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayon asosan yirik korxonalar va davlat ishtirokidagi subyektlar doirasida shakllanmoqda. Bu holat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklab, moliya tizimida risklar konsentratsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, davlat banklarining yuqori ulushi raqobat muhitining yetarli darajada shakllanmasligiga va bozor mexanizmlarining to'liq ishlamasligiga olib kelmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kredit hamda moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, moliyaviy resurslarni taqsimlashda bank kreditlariga haddan tashqari tayanishni kamaytirish maqsadida kapital bozorlarini jadal rivojlantirish zarur. Qimmatli qog'ozlar emissiyasini kengaytirish, korporativ obligatsiyalar bozorini chuqurlashtirish hamda institutsional investorlar faolligini oshirish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kredit resurslari qiymatini pasaytirish maqsadida banklarning resurs bazasini kengaytirish, uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy manbalarni jalb etish hamda foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmlarini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, kredit portfellarida risklar va konsentratsiyani kamaytirish maqsadida banklarda risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarur. Xususan, kredit paketlarining yuqori foiz stavkalari real sektor subyektlari uchun moliyaviy yukni oshirayotgani hamda ayrim yo'nalishlarda qaytarilmagan kreditlar (NPL) ulushining ortishi bank tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois kredit baholash tizimlarini takomillashtirish, scoring modellarini keng joriy etish, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish ulushini bosqichma-bosqich oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, bank sektorida raqobat muhitini kuchaytirish uchun davlat banklarining iqtisodiyotdagi ulushini izchil kamaytirish, xususiy va xorijiy banklar ishtirokini kengaytirish hamda bank faoliyatida shaffoflikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, moliyaviy vositachilar va instrumentlar xilma-xilligini kengaytirish orqali moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash zarur. Investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va boshqa nodavlat moliya institutlari faoliyatini rivojlantirish moliya bozorlarida muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantiradi.

Beshinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlash kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida moliyaviy bilimlarni kengaytirish uzoq muddatli investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda kredit va moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish kompleks va izchil yondashuvni talab etadi. Bank sektorini transformatsiya qilish, kapital bozorlarini rivojlantirish va institutsional muhitni takomillashtirish orqali milliy moliya tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli asosda ta'minlash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2022). *Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari*. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). *Bank tizimini transformatsiya qilish va barqarorligini ta'minlash bo'yicha tahliliy hisobot*. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022). *Moliya bozorlarini rivojlantirish strategiyasi*. Toshkent.
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (2023). *O'zbekistonda bank sektori va kreditlash jarayonlari tahlili*. Toshkent.
5. Astanov X.Z, Omonturdiyev O.E. (2026). *Bank va moliya bozorlari*. Toshkent.
6. Xudoyberdiyev, B. (2021). *Milliy bank tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari*. Toshkent.
7. Abdullayev, A. (2022). *Pul-kredit siyosati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik*. Toshkent.
8. Stiglitz J.E. *The Role of the State in Financial Markets*. Washington: World Bank, 2019.
9. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. New York: Pearson Education, 2021.
10. Levine R. Financial development and economic growth: views and agenda // *Journal of Economic Literature*. 2020. Vol. 58(1). P. 31–77.
11. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance, inequality and the poor // *Journal of Economic Growth*. 2022. Vol. 27(2). P. 145–198.
12. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. Cambridge: Harvard University Press, 2018.
13. World Bank. *Global Financial Development Report*. Washington DC, 2023.
14. IMF. *Financial Sector Assessment Program: Uzbekistan*. Washington DC, 2022.
15. Asian Development Bank. *Uzbekistan Financial Market Development*. Manila, 2023.
16. OECD. *Finance and Economic Resilience*. Paris, 2021.
17. UNDP. *Inclusive Finance and Sustainable Growth*. New York, 2022.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---